

NAZAR ESHONQULNING “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM”
HIKOYASI TAHLILI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
105- guruh talabasi **Sayfullayeva Shaxrizoda**
Ilmiy rahbar: **Usarova Laylo**

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zining zamonaviy asarlari va hikoyalari bilan shuhrat qozongan mashhur yozuvchi Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi tahlili, udagi kompozitsiya, syujet, voqealar tizimi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, pafos, mafkura, xira tasvirlar, maymun, zanjir, jamiyat, yoshlik, konflikt.

Ushbu hikoya 1989-yil 6-yanvar kuni “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida bosilib chiqdi. Ushbu kichik hikoya syujeti va voqealar rivojining o'zgachaligi bilan kitobxonlar e'tiborini jalb qila olgan. Eng avvalo uning sarlavhasi kishining aqlida asarni o'qimasdanoq munozarali kayfiyatni uyg'otadi. Xo'sh, odam maymunni yetaklaganmi yoki maymun odamni yetaklayapdimi? Bu o'rinda o'zbek tiliga xos so'zlarning ma'no qirralari namoyon bo'lgan. Asarning sarlavhasi uning kompozitsiyasida muhim rol o'ynab, hikoyaning mazmunini o'zida namoyon qilgan. Hikoya nega aynan shunday nomlangani va yuqoridagi munozarali o'ylarimizning javobini uni o'qish jarayonida anglab boramiz. Asar syujeti sayyor syujet bo'lib, yozuvchi hikoyani mavjud qoliplar asosida emas mutlaqo yangicha talqin, yangicha ruhda, o'ziga xos salohiyatda yozgan. Syujet voqealari xronikal tarzda joylashgan. Voqealar ekspozitsiyadan boshlangan: ” Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko'channing muyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqda chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim. ...”[1] Hikoya boshlanishidayoq keltirilgan cholning qiyofasi ayniqsa, hikoyaning g'ayrioddiy pafosini o'zida mujassamlashtirgan. “ U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi.”[2] Yozuvchi kitobxon xayolida ko'rimsiz, hayotning butun chalkashliklari-yu tashvishlariga qo'l siltagan, “yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga

o'xshab" ketadigan , "go'yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo'ygan, hech narsaning qizig'i qolmagan" o'zgacha qahramon portretini chizib beradi. Aynan mana shu holat kishida hikoyaga bo'lgan qiziqishni orttirgan. Nega hikoya yorug' tasvirlar bilan emas, "qorong'u" va "xira" tasvirlar bilan boshlanayotgani asarni o'qiyotgan kitobxonning xayolida noaniqliklar va ko'plab savolarni keltirib chiqaradi." ...qoboqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo'yganini ko'rib qolardim . Zaharli ... odamni bo'g'ib, holdan ayro qilib qo'yadigan bu adovat menga o'shanda uning butun tanasidan, butun vujudidan, qoqshol bo'lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi tilsimli qo'rg'on kabi noma'lum bo'lgan umr qal'asidan ufurayotgandek tuyulgandi"[3] Mana shu tasvir jarayoni hikoyaning tuguni. Talabani chol bilan, uning chizgan rasmlari bilan tanishuvi, chol va talabani fikrlari o'rtasidagi konfliktlar jarayonida asar voqealari rivojlanib boradi.

Hikoya qahramoni chol chizgan ikki surat uning butun hayotida o'zi ishongan falsafadir. U o'z hayotini shu ikki rasmda mujassamlashtirdi. Uning yoshlikda chizgan rasmi , navqiron , yosh, ko'zlarida qat'iyat va ishonch aks etgan yigitning o'rmondan bo'yniga tarang qilib tortilgan zanjir osilgan maymunni yetaklab chiqishi , bu ramziy belgi bo'lib, cholning yoshlik davrlariga ishora qiladi, ya'ni u yoshligida iqtidorli edi, uning chizgan tasvirlarida yorqinlik ko'tarinkilik qat'iyat aks etib turardi. Maymunni yomonlik , hayotdagi salbiy holatlar , qorong'u bir mafkuraning ramzi deb olsak, yigitning maymunni zanjirlab yetaklab ketishi uning hayotdagi mana shu yomonliklar, salbiy mafkuraga qarshi kurashganligi va uning ustidan g'olib kelishi deya olish mumkin. Haqiqatdan ham chol o'ttizinchi yillarda mas'ul vazifalarda uzoq yillar xizmat qilgan , uning xizmatlari el og'ziga ham yoyilgandi. Yonib –kuyib ko'zlarida qat'iy ishonch bilan mehnat qilgandi, mustabid tuzumga qarshi kurashgandi. Ammo cholning keying yillarda chizgan suratlarida avvalgilaridagi yorqinlik tobora susayib , iliq ranglar o'rnini g'ira –shira , qora bo'yoqlar egallay boradi. Hikoyada cholning o'z do'stining faoliyatidan qistirma epizod keltirishi go'yoki, mana shu rasmlardagi qoralikning sababidek keltirib o'tiladi. Chunki chol "hayotda nima yaxshilig-u nima yomonlik, hech qachon farqlab bo'lmaydi, yaxshilik - ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo'lib tuyuladi, mening umrimda anglagan xulosam shu"[4] degan gapi bilan do'stining hayoti orqali o'z hayoti uchun ham xulosa chiqarib bo'lgandi. Uning hayotida salbiy xulosalarni keltirib chiqaruvchi qanday hodisalar sodir bo'ldi bu bizga qorong'u, o'sha davrdagi "yuqoridan shuncha xom-ashyo bor, deb buyruq kelardi. Buyruqni inkor etib yoki muhokama qilib bo'lmasdi, - biz ana shunday ruhda tarbiyalaganmiz, - uni bajarish kerak!"[5] qabilidagi ijtimoiy tuzum bunga sabab bo'lgandir , ehtimol..." E'tiqod! Agar bir umr e'tiqod qo'yib, shunga ishonib, kurashib yonib-kuyib ... e'tiqod qo'ygan narsangiz puch, yolg'on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig'ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz bunday demasdingiz... Bu so'z

shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvozki, eshitsam ko'nglim ayniydi.”[6]- deydi u. Nahotki bir paytlar ko'zlaridan nur chaqnagan inson hayotning beshafqatliklariga osongina taslim bo'lolsa...Uning “ bu suratlari - o'z-o'ziga ishonmagan, umrini turli aldovlar va yupanchlar bilan behuda o'tkazgan odamning hayot haqidagi o'ylari, uning mavhumlikka mustahiq qalbining parcha-parchalari edi. Umri poyoniga yetgan sayin dunyoning beshafqat xulosalaridan qochib, u mana shu sokinlik va yolg'izlikning quyuc o'rmoniga yashiringandi...”[7] Ammo u hali ham o'ziga zarur xulosani topolmagandi.Cholning gaplari kishi ongini zaharlovchi ishonchsizlik bilan to'la edi.Uning umri so'ngida chizgan rasmi- maymun umidsiz ko'zlariga g'am cho'kkan munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab ketardi.Eng qizig'i bu safar cholning bo'ynida zanjir yo'q edi, davr, inson o'zgardi, ammo makon va maymun o'zgarmadi.Mening fikrimcha, bu cholning ijtimoiy mafkura, yomonlikka taslim bo'lgani , jamiyatda o'zining yoshlikdagi qat'iyatini singdirolmagani , aksincha, hayotdagi chirkinliklar, yomonliklarning uning ustidan qilgan g'alabasi edi.

Hikoyada cholning oqibatsiz o'glining tasviri ham bor. butun hayotini qora bo'yoqlarga ko'mgan insonning farzandi qanday ham bo'lsin, albatta shunga o'xshsh qimorboz, kissavur va qotil bo'ladida.Jamiyat shunday, unda yaxshilar ko'p bo'lsa, yaxshilarning davomchilari ham ko'p bo'ladi, agar jamiyatda cholga o'xshash hayotning zug'umlariga taslim bo'lgan shaxslar ko'p bo'lsa, ularning avlodlari ham shu tarzda davom etaveradi.Hikoyadagi talaba obrazi va chol o'zaro ziddiyatda bo'lib, talabaning yorqin fikrlarini o'qish jarayonida fikrimiz cholning fikrlaridagi “qoralik”dan oq bo'yoqlarga almashadi va hayotda yomonlar bilan birga yaxshilar, “qoralar” bilan birga “oqlar” ham borligini yana bir bor eslatadi.

Meni qiziqtirgan yana bir narsa hikoyada nega aynan maymun tasviri kiritildi, boshqa bir hayvon emas. Norbekova Anoraning ushbu asar tahlili haqida shunday fikrlari bor:” Yigit bu yerda o'zi yashayotgan jamiyat a'zolarini yetaklab ketayotganga o'xshaydi. Yigitning maymunni yetaklab o'rmondan chiqishi jamiyatni ham maymun kabi yetaklay olishini, cholning maymunning ortidan ko'zlariga g'am cho'kkan, hayotga bo'lgan intilishidan nishona qolmagan holda ergashishi esa jamiyatga, mavjud haqiqatga tobe ekanligining ramzidir.”[8] Ushbu fikrda maymun obrazi jamiyatning ramzi sifatida talqin qilingan.Ch.Darvin ta'limotiga ko'ra inson maymundan yaralgan deb aytiladi. Aslida esa aksincha, o'zlarining gunoh ishlari bilan Allohning qahrini keltirgan insonlar qavmi maymunga aylanib qolgan.Hech bir musulmon kishi bu fikrga shubha qilmaydi. Shu jihatdan olib qarajak, maymun- o'sha davrdagi sobiq mustabid tuzumning noto'g'ri g'oyalari asosida shakllangan jamiyat ramzi bo'la oladi, menimcha.

Asar syujetida ekspozitsiya, tugun , voqealar rivoji , konflikt, kulminatsiya kabilar yaqqol o'z ifodasini topgan. Choldagi maxfiylikning ochila borishi, uning talaba yigit bilan bo'lgan suhbatida ochiqqlangan dunyoqarashi va keltirgan fikrlari asar

kulminatsiyasi bo'la oladi. Asardagi cholning o'limi, uning umrining oxirida chizgan rasmi voqealarning butunlay tushunarli bo'lishi , sirlilikning yo'qolishiga xizmat qilgani uchun asarning yechimi hisoblanadi. Hikoyada keltirilgan sarlavha , portret , peyzaj, detal, qistirma epizod kabilar asar kompozitsiyasini yaxlitlovchi muhim omil vazifasini bajargan. Ayniqsa, cholning uyining tasviri chizilgan holatlar hikoyadagi o'zgacha kayfiyat, undagi kirlik, qoralikni ta'kidlashga xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin.

Demak, hayotda inson doimo o'ziga bo'lgan qat'iyat va ishonch bilan yashashi va shu yo'lda harakat qilishi lozim. Hayotdagi qiyinchiliklar, to'siqlar sizning fikrlaringizning o'zgarishi , ishonchingizning yo'qolishiga sabab bo'lmasin. Zero hayot yorqin insonlar , yorqin fikrlar, yorqin bo'yoqlar bilan turli ranglarda jilolanadi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazar Eshonqul “Maymun yetaklagan odam” Toshkent “Yangi asr avlodi” – 2004.
2. A. Norbekova “Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi misolida” ilmiy maqola .
3. A. Ulug'ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” darslik Toshkent – 2017.